



OLIM OTAXON HIKOYALARIDA MUALLIF OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI

Xurramova Sevinch Husan qizi

ToshDO'TAU talabasi

sevinchxurramova2022@gmail.com

Komiljon Hamroyev

Ilmiy rahbar PhD, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20727704>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Olim Otaxon hikoyalari tahlilga tortilgan bo'lib, hikoyada muallif obrazining o'рни hamda uning qay tarzda namoyon bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Shunindek, ijodkor hikoyalaridagi shakl va uslub o'ziga xosligi, ijodiy individuallikka ham urg'u beriladi. Bundan tashqari, yozuvchi hikoyalarida muallif pozitsiyasi qaysi o'rinda turishi, yozuvchi mahorati va qanday mavzular yoritilgani ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: muallif obrazi, shakl va uslub, muallif konsepsiyasi, muallif pozitsiyasi, roviy, hikoyanavis, bayonchi.


Abstract. This article analyzes the short stories of the writer Olim Otakhon, focusing on the role of the author's persona and the mechanisms of its manifestation. Furthermore, it emphasizes the stylistic and structural uniqueness of the creator's stories, as well as his creative individuality. In addition, the paper reveals the significance of the author's position, the writer's craftsmanship, and the key themes explored in the narratives.

Keywords: author's persona, form and style, author's concept, author's position, narrator, short story writer, storyteller.

Аннотация. В данной статье анализируются рассказы писателя Олима Отахона, при этом особое внимание уделяется роли образа автора и способам его проявления. Также подчеркивается своеобразие формы и стиля в рассказах творца, его творческая индивидуальность. Кроме того, раскрываются место авторской позиции, мастерство писателя и ведущие темы, затронутые в произведениях.

Ключевые слова: образ автора, форма и стиль, концепция автора, авторская позиция, повествователь, новеллист, рассказчик.

Tarixan hikoya janri juda qadimiy bo'lib, og'zaki ijoddan suv ichgan, rivoyatlar qanotida shu davrgacha yetib kelgandir. Uilyam Folkner: "Adabiy janrlar ichida eng og'iri she'riyatdan keyin hikoyachilikdir... Romanda anchayin nuqsonlar, pala-partishlik sezilmasligi mumkindir. Buning uchun kitobxon yozuvchidan ranjimaydi. Lekin muxtasarlikda she'rdan keyingi o'rinda turadigan hikoyada, fahmimcha, deyarli har bir so'z o'z o'rnida qo'llanishi kerak..."¹, deydi.





Adabiyotshunoslik kitoblarida hikoyaga ta'rif berilganda, roman va qissadan farqli o'laroq hikoyada qahramon xarakteri shakllangan holda kelishi, syujetda voqealar rivoji kengaymasdan, balki epizoddan epizodga o'sib borishi aytiladi². D.Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyevaning "Adabiyotshunoslik lug'ati"da: "Hikoya –epik turning kichik shakli. Hikoya, odatda, qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechikishi hikoyaning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo'lishini taqozo etadi. Har qanday voqea ham hikoyabop emas. Hikoya asosida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo'lishi talab etiladi, buning uchun u o'zining boshlanishi va yakuniga(masal, latifadagi kabi) lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi. Hikoyaning ikki tipi bo'lib, birinchisida ocherklik(tavsifiy-rivoyaviylik), ikkinchisida novellistiklik (konfliktli-rivoyaviylik) xususiyati ustundir",-deb beriladi.

Bugungi kunga qadar o'zbek hikoyachiligi ham ma'lum darajada uzoq yo'lni bosib o'tdi. O'zbek adabiyotida hikoyalar XIX asrning so'nggi yillarida janr sifatida paydo bo'lgani va XX asrning boshlariga kelib shakllangani aytiladi. Albatta, hikoya janri rivoyat va hikoyalarga borib taqaladi. Rivoyatlar esa insoniyat ibtidosi bilan bog'liq hodisadir. Har bir adib adabiyotdagi mezonlar nuqtayi nazaridan kelib chiqib, hikoyaga turlicha yondashadi, yangicha shakllar yaratadi. Biz o'zbek hikoyachiligini shartli ravishda uch davrga bo'lib o'rgansak bo'ladi:

1. XX asrning 20-30 –yillaridan 50-60-yillarigacha bo'lgan davr;
2. XX asrning 50-60-yillaridan 70-80-yillarigacha ;
3. XX asrning 70-80-yillaridan bugungi kungacha bo'lgan davr.

XX asrning dastlabki yillari o'zbek hikoyachiligi uchun shakllanish davri bo'lgan bo'lsa, 20-30-yillaridan hikoyachilik har jihatdan taraqqiy eta boshladi. O'zbek hikoyachiligida aksariyat asarlar uchun maishiy turmush voqeligi mavzu qilib olingan bo'lib, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, O'lmas Umarbekov, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zamov, Xayriddin Sultonov kabi adiblarning hikoyalari shular sirasiga kiradi. Ularda syujet xilma-xilligi, g'oya rang-barangligi ko'zga tashlansa-da, hammasida bayonchilik uslubidan foydalaniladi.

Hikoya qiluvchi ro'iy bor e'tiborni o'ziga emas, voqeaga qaratadi. "Shunday qilib XX asrning boshlarida Abdulla Qodiriyning "Uloqda", "Juvonboz",

²O'sha manba





Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadiyor" " kabi kichik asarlari yangi janrning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Mazkur hikoyalar uchun ko'proq ijtimoiy muammolar talqini, nisbatan badiiy zaiflik, bayonchilik usuli xos bo'lsa-da, shunga qaramasdan, mualliflar dunyoqarashi, mazmunning milliyligi va tabiiyligi ularda o'ziga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishini ta'min etdi"³ . Bundan keyingi davr o'zbek adabiyotida G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi yozuvchilar o'zbek hikoyachiligini yangi bosqichga olib chiqdilar. Bu davr hikoyachiligida, asosan, satira va yumor orqali real hayotiy syujet asosiga qurilgan hikoyalar uchraydi. Shuningdek, ushbu hikoyalarda asarning maqsadi va g'oyasi kishilar o'rtasidagi dialoglarda ochilib boradi. Bu yerda epik asarga xos plastik elementlar namoyon bo'lib , voqea-hodisalar ongda emas, jonli hayotda yuz beradi. Bundan tashqari, yozuvchilar hikoyaning tili va nutq uslubiga ko'proq e'tibor beradilar. Qizig'i, asar qahramonlariga o'xshash kishilarni bemalol hayotda uchratish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, Abdulla Qahhor hikoyalarida badiiy nutq masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, qahramonlar nutqi ustida jiddiy ishlangan. Yozuvchi hikoyalarida muallif shaxsiyati birinchi planda turmaydi, u qahramonlarni shunday ustalik bilan jonlantiradiki, natijada muallifning o'zi ikkinchi planda bo'lib qoladi. Yana masalaning boshqa tomoni borki, bu yerda qiziqarli va hayotiy syujet hamda o'z davri uchun dolzarb bo'lgan mavzu ko'tarilib, muallif obrazi boshqacha namoyon bo'ladi. Ba'zi hikoyalarda roviy obrazi bo'lib kelsa, ba'zilarida esa, asar qahramonining tiliga, maslagiga ko'chirilgan bo'ladi. Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Dahshat", "Bemor", "Anor" hikoyalari yuqoridagi ta'riflarga aynan mos keladi.

Bu davr hikoyalarida ko'p hollarda muallif obrazi hikoyachi –roviy pozitsiyasida keladi va voqealar uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Yigirmanchi asr boshidan deyarli asrning 70-80-yillarigacha hikoyalar qurilish jihatdan o'xshash va yuqorida ta'kidlanganidek, voqealar ongda emas, tashqi muhitda sodir bo'ladi. Bunda hikoya tipining birinchi tasnifiga xos ocherklilik (tavsifiy-rivoyaviylik) xususiyati yetakchilik qiladi.

Boshqa nasriy asarlardan farqli ravishda muallif obrazi hikoyada ko'proq roviy ya'ni hikoyanavis sifatida namoyon bo'lgan. Buning sabablarini hikoyaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda keltirsak bo'ladi. Hikoya roman va qissaga nisbatan hajman kichik va soddaroq syujetdan tarkib topgani, ko'p emas, bir va bir nechta qahramon ishtirok etgani uchun ham unda muallif shaxsiyati har doim ham namoyon bo'lavermaydi. Masalan, roman yoki qissa hajman yirikroq bo'lgani uchun ham muallifning shaxsiy konsepsiyasi qaysidir qahramon nutqida aks





etishi yoki xatti-harakatlarida namoyon bo'lishi mumkin. "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek Hoji tilidan millatning dardi, kamolotga erishmoqchi bo'lgan kishining o'y-fikrlari beriladi va bu yerda biz Qodiriyning o'zini ko'rgandek bo'lamiz yoki Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida Bo'ri polvon nutqida muallifning pozitsiyasi yaqqol sezilib turadi: "Xalq nimasi bilan xalq? O'zining urf odatlari bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an'analar bilan xalq! Ko'p urf-odatlarimizni birovlar o'ziniki qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik. Shunday keta bersak, hademay... o'zimizni-da boy berib qo'yamiz! Buyog'i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo'q qildik. Xiyol bo'lmasa, xalqning o'zini-da... Eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin, dedik! Bugun buni yo'qota bersak, ertaga uni yo'qota bersak, adirdagi... podadan nima farqimiz qoladi?... Biz hademay bu dunyodan ketamiz. O'zimiz ketsak-ku go'rga-ya..."⁴. Demak, roman va qissada hikoyaga nisbatan muallif obrazi keng qamrovli bo'ladi. Hikoyada esa, roviy-hikoyanavis bilan cheklanib qoladi.

XX asrning 70-80-yillarida o'zbek adabiyotida nafaqat yangi nafasli shoirlar, balki yangi iste'dodli yozuvchilar ham paydo bo'la boshladi. Mana shular qatorida Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Normurod Norqobilov, Olim Otaxon, Nurulloh Muhammad Raufxon kabi ijodkorlar adabiyotimizga yangi to'lqin, yangi yo'nalish olib kirgani aytiladi. Shu davrdan e'tiboran o'zbek hikoyachiligida Ahmad A'zam, Eshqobul Shukur, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul kabi ijodkorlar hikoyalarining mavzu rang-barangligi, qamrov ko'lamining kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlari bilan adabiyotda o'z o'rnini egallab kelmoqda. "Istiqlol davrida yangilangan badiiy tafakkur Erkin A'zamning "Stupka", Xurshid Do'stmuhammadning "Qichqiriq", Nurulloh Muhammad Raufxonning "Etakdagi kulba", Nazar Eshonqulning "Bahovuddinning iti", Rahimjon Rahmatning "Adashvoy", Isajon Sultonning "Suvdagi kosa", Ulug'bek Hamadamning "Bir piyola suv" kabi hikoyalarini berdi. Nomlari zikr etilgan va yana Omon Muxtor, Ahmad A'zam, Olim Otaxon, Murod Karim kabi nosirlar, Bahrom Ro'zimuhammad, Tursun Ali, Faxriyor, Aziz Said, Shermurod Subhon, Go'zal Begim singari shoirlarning izlanishlari yangi (modern) o'zbek nasri va nazmining o'ziga xos namunalari hisoblanadi."⁵ Qolaversa, muallif obrazi bu davr hikoyalarida o'zgacha bo'y ko'rsatdi. Tashqi olam ichkariga "ko'chirildi", hikoyada real tasvirdan ko'ra ko'proq ong oqimi yetakchilik qila boshladi. Muallif obrazi "u" ya'ni uchinchi shaxsdan ikkinchi shaxs "sen" va ko'proq birinchi shaxs "men" ga o'tdi deyish mumkin. Endi muallif qahramonni

⁴ Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. 46-бет

⁵ Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. –T.: Akademiknashr, 2020. –B.9.





emas, o'zini taftish eta boshladi. Bu davr hikoyalarining ayrimlarida faqat shakl o'zgargan bo'lsa, ayrimlarida shakl bilan birga mavzular qamrovi kengayganini ham ko'rish mumkin. Masalan, Xayriddinning Sultonning "Odamlardan tinglab hikoya" to'plamiga kiritilgan hikoyalar bir qarashda bizga "Ming bir kecha"ni eslatib yuboradi. Bu yerda roviy asar voqealariga aralashmaydi, muallifning hech qanday shaxsiy fikrlari berilmaydi, hikoyanavis asar voqealarining boshidan oxiriga qadar hukmron bo'lsa-da, biror nuqtada faollik ko'rsata olmaydi, chunki syujet allaqachon pishib yetilgan, voqea sodir bo'lib bo'lgan va o'tmishga aylangan. Kitobdan o'rin olgan "Millatchining jazosi", "Har ish bo'lsa -Xudodan", "Tarjimayi hol", "Otamning aytganini qilishim kerak", "Ikki karra qahramon" hikoyalarida syujet juda qiziqarli, mavzu ko'lamini keng va turfa taqdirlar qalamga olingan bo'lsa ham, shaklan bir xillik ko'zga tashlanadi. Bu davrning boshqa bir tur hikoyalarida esa shakl o'ziga xosligi va mavzu rang-barangligini ko'rish mumkin.

xususiyat -konfliktli - rivoyaviylik yuqoridagi hikoyalarga aynan mos tushadi.

Adib hikoyalari tahliliga o'tishdan avval, biz biroz adabiy tayyorgarlik ko'rishimiz lozim bo'ladi, ya'ni yozuvchining o'zi asar tahlil qilishda nimalarga e'tibor bergan, qanday prinsiplar asosida yondashganiga qiziqib ko'rsak, uning asarlari -hikoyalarini hazm qilish yengil kechadi. Yozuvchi maqolalarini o'qib uning fidoyi adabiyotshunos, faol adabiy targ'ibotchi bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Bir maqolasida yozuvchi adabiyotni yaxshi tushunmaydigan, faqat qulog'i eshitgani, ko'zi ko'rganiga ishonib, masalaga tahliliy yondashmaydigan adabiyot "himoyachi"laridan yozg'iradi.

" Bir adabiyotshunos do'stim, -degan edi Olim Otaxon, -Lotin Amerikasining qaysidir adibi qalamiga mansub hikoyani o'qib: "Qarang, bizda yozuvchilar syujet axtarib yurishadi, bular uchta o'smir qiz topgan o'yinni tasvirlash orqali shunday ta'sirli, hayotiy va badiiy yuksak hikoya yaratishganiga lol qolaman", -deganda ming karra haq edi". Mana shu fikrlariga mos ravishda, uning "To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza", "Ularni tarbiyalagan tun", "Gulzor chekkasidagi quyosh", "Ibrohim" kabi hikoyalari dunyoga kelgan. Faqat bugina emas, "Chanoq", "Nur", "Qismat", "Dargohi keng dunyo", "Qasam", "Alam", "Qarovsiz uy ", "Mubtalo", "Qodirova", "Yo'qolgan ro'mol", "Oqshom xayollari", "Uchinchi nigoh", "Javobsiz maktublar", "Kimsasiz ko'chalar" kabi hikoyalarda ham syujet o'ziga xosligi, mistik tasvir unsurlari aro turfa taqdirlar qalamga olinib, inson qalbining ich-ichiga kirib boriladi. Bularning har birida muallif shaxsiyati har doim bo'rtib turmasa-da, barcha hikoyalarni birlashtirib turuvchi narsa, qalb sadosi, inson





kechinmalarining rang-barang jilovlanishidir. Ijodkor shunchaki aytmaydi, u tasvir yaratadi.

Tadqiqot obyekti sifatida olingan Olim Otaxon hikoyalarida ham ana shunday yangilanishlar va shaklan o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin. Yozuvchi va tarjimon Olim Otaxon 1951-yili 12-aprel kuni Toshkent shahrining Beshyog'och dahasida dunyoga kelgan. 1969-1974-yillarda Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetining kechki bo'limida tahsil oladi. Aynan Olim Otaxonning talabalik yillari, nashriyotdagi faoliyati haqida do'stlari, hamkasblarining juda ko'p xotiralari mavjud va bularda yozuvchining talabchanligi, yuksak badiiy didi, tarjimonlik faoliyati va sermahsul ijodiy mahoratining yaqqol ifodasini his qilamiz. Xususan, Dilshod Shams quyidagilarni qaytd etib o'tadi: "Men Olim Otaxon bilan 1987-yili O'zbekiston radiosi adabiy-dramatik eshittirishlar bosh muharririyatida yangi ish boshlagan chog'larim tanishganman. So'ng bir ijodiy jamoada salkam olti yil yonma-yon ishladik. O'sha yillari Olim Otaxonni ham ijodkor yozuvchi, ham radiojurnalist sifatidagi iste'dodi "yarq" etib namoyon bo'lgan. "Qayta qurish davri" atalmish u yillarni bugun "Mustaqillikni qurish yillari" deb nomlagan bo'lardim. Istiqlool sari ilk qadamlar qo'yilgan davr edi bu. Xalqimizning milliy zehniyatida, milliy ongida mustaqillik, ozodlik g'oyalari qayta jonlanayotgandi. O'shanda qator qaytmas va o'jar ijodkorlarning shijoati, ijodiy jasorati yaqqol ko'ringan. Olim Otaxon ana o'sha o'jar ijodkorlarning old saflarida edi.

Milliy hikoyachiligimizning bugungi qiyofasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan asrdan hozirgi kungacha ancha shakliy va mazmuniy o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, jahon adabiyotidagi faol ijodiy tajribalar adabiyotimizga olib kirilib, tatbiq etilgani ham ahamiyatga molik. Xususan, muallif obrazi, muallif shaxsiyati ham ushbu hikoyalarda o'zgacha bo'y ko'rsata boshladi. Yozuvchi Olim Otaxon hikoyalarida ham bunday adabiy yangiliklar – shaklda, tasvir va mazmundagi o'zgarishlarni uchratish mumkin. Voqealarning ongda sodir bo'lishi, qahramonning tinmay o'zini taftish qilishi muallifning obrazga nisbatan qarashlarini o'zgartirdi. Bunda ijodkorning Xulio Kortasar, Ernest Xeminguey, Kavabata kabi mashhur ijodkorlar bilan ma'nan yaqinligi, sara ijodkorlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilganidir.

Yozuvchi ham milliy, ham jahon adabiyotining eng mashhur adiblari ijodiga munosabati va qarashlarini esse va maqolalar shaklida ifodalab bera olgan ijodkordir. Qolaversa, yozuvchi bu mashhur yozuvchilarning dunyo adabiyotida tutgan o'rni va o'zbek kitobxoniga nima bera olishi haqida qimmatli fikrlarni berib o'tadi. Xususan, "Aysberg nazariyasi yutuqlari" maqolasida jahon adabiyotidagi






ahvol, shuningdek, Ernest Xeminguey ijodi va uning aysberg nazariyasi borasidagi fikrlariga batafsil to'xtalib, bu nazariyaning adabiyotdagi o'rni va ahamiyatini kitobxonga uqtirishga harakat qiladi. Bilamizki, aysberg katta qismi suv ostida bo'lgan, kichik bo'lagigina ko'rinib turadigan ulkan muz tog'i hisoblanadi. Aysberg nazariyasi (Iceberg theory) adabiyot va psixologiyada ishlatiladigan tushuncha bo'lib, asosan Ernest Xeminguey nomi bilan bog'liqdir. Bunga ko'ra yozuvchi hamma narsani ochiq aytmaydi, balki dialoglar va sodda gaplar ortiga yashirin ma'nolarni yuklaydi, mulohaza va xulosani o'quvchining o'zigagina qoldiradi. Olim Otaxon ushbu maqolasida Materlinkning mana bu fikrlarini keltiradi: "Sizlar bu sozni shunchalar uzoq chaladingizki, oxir-oqibat biz tinglab charchadik"⁶. Haqiqatan, XX asr 70-80-yillarigacha bo'lgan adabiy manzaraga nazar tashlasak, ko'p hollarda birxillikni ko'rishimiz mumkin. Ammo bu davrdan e'tiboran o'zbek adabiyotiga ham yangicha uslub kirib kela boshladi hamda mavzular yangilanishi ham kuzatildi deyish mumkin. Bu o'zgarishlar Olim Otaxon hioyalarida ham o'z aksini topdi. Uning "To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza", "Gulzor chekkasidagi quyosh", "Ibrohim", "Ularni tarbiyalagan tun" hikoyalari adabiyotshunoslar diqqatini tortib qolmay, balki qizg'in bahslarga sabab bo'ldi. Bu hikoyalarda muallif obrazi yangicha shaklda namoyon bo'la boshladi, muallif pozitsiyasi faqatgina roviy yoki qaysidir qahramon ichida shakllanmasdan, o'zi hikoyada mustaqil bo'y ko'rsatadi hamda bosh qaharamon bilan qarama-qarshi turib, uni so'roq qiladi. E'tiborli jihati, voqealarning bari ong ostida kechadi. Bu yerda vaqt va zamon ahamiyatini yo'qotadi. Xususan, "To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza" yoki "Alam" hikoyalarida muallifning asarga ochiqdan-ochiq aralashuvini ko'rishimiz mumkin.

Adibning "Aysberg nazariyasi" maqolasida Ernest Xemingueyning "Qotillar", "Yomg'irda qolgan mushuk" nomli ikki hikoyasi tashlil qilingan. Birinchi hikoyada taqdirga tan bergan umidsiz inson hayotining omonatligi va himoyasiz ekanligi tasvirlangan. "Yozuvchining mahorati faqat shundan iboratki, u kutilmagan rakursdan turib "suratga oladi", sinchkov kitobxon muallif maqsadini ilg'aydi, anglab yetadi va kerak bo'lsa uning fikr-mushohadalarini davom ettiradi, o'zi uchun zarur xulosalar chiqaradi"⁷. Olim Otaxonning "Ibrohim" hikoyasi aynan syujet va tasvir jihatidan farqli bo'lsa ham, mazmun va g'oyasi Ernest Xemingueyning ushbu asariga o'xshashdir. Unda ham ojiz va ilojsiz kishiga zulm qilinib, umidsizlik girdobiga tashlangan. Ibrohim ismli bolaning shafqatsiz muhitda yovuzlik bilan yuzma-yuz kelishi qalamga olinadi. Hali dunyoni orzu kabi

⁶ Отахон Олим. Танланган асарлар. – Т.: "Sharq", 2021. – Б. 572

⁷ Отахон Олим. Танланган асарлар. – Т.: "Sharq", 2021. – Б. 570.






musaffo deb bilgan bola odamzodning zulm oldida nochor, o'jiz qolishini ko'rib, dili vayron bo'ladi. Eng achinarlisi –bu zo'ravonlikka, uning atrofidagilardan bir boladan tashqari hech kim qarshi chiqolmaydi. Bosh ko'tarishga hech kim botinolmaydi. Yozuvchining “Alam” nomli hikoyasi ham borki, buni “Ibrohim” ning mantiqiy davomi deyish mumkin. Hikoyada endi Ibrohimning tarafini olgan yolg'iz bola –Nozim haqida gap ketadi, uning hislari ochib beriladi. Bu yerda bolaning hayotida ota-onaning ahamiyati qanchalar muhimligi, bolalar shunchaki dunyoga keltirilib, tashlab qo'yiladigan buyum emasligi, balki ota-ona farzandini boqib, tarbiya berishdan tashqari uning qiziqishlari, orzu-o'ylariga e'tibor berishi kerakli tasvirlangan. Umuman olganda, yozuvchi hikoyalarida bolalar va ayollar mavzusi keng o'rin olgan. Ayniqsa, yosh avlod taqdiri, unga mas'uliyatli bo'lish yetakchi g'oyalardan biri deyish mumkin. Uning faqat hikoyalarida emas, qissa va badialarida ham yosh o'smirlar hayoti, ularning o'ylari, kechinma va sarguzashtlari ochib berilgan.

Maqolada tahlil qilingan ikkinchi hikoya “Yomg'irda qolgan mushuk” da ayol kishining hislari tasvirlanadi. Olim Otaxonning “Qodirova” hikoyasi shaklan va mazmunana ham shunga o'xshab ketadi. Dastlab “Ahrorning xotini”⁸ keyinchalik “Qodirova” nomi bilan chop etilgan hikoyada bir ayolning o'zgacha ruhiyatini kuzatamiz. Atrofida jamiyki narsalar mavjud bo'lgan ayolning hech bir kami yo'qqa o'xshaydi, ammo doimo o'zini baxtsiz his qiladi. Demak, yozuvchi ayolning baxtini moddiyatda emas, balki ruhiyat jilvalanishida, uning doimiy yangilanib turishida ko'radi. Shuning uchun ham uning deyarli ko'p asarlaridagi ayollarni ularning qiyofasi birlashtirib turadi. Hikoyada badiiy adabiyotda biz ko'nikkan sifatlar, tashbehlar, bo'rttirishlar, obrazli ifodalar uchramaydi –quruqqina yozilganday taassurot uyg'otadi. Lekin zohiran his-hayajonsiz, ehtirossiz, quruq tuyulgani bilan botinan to'laqonli, jo'shqin, ehtirossiz limmo-lim asar. “Ta'bir joiz bo'lsa, aysberg –muz qoyaning asosiy qismi suv ostida, ya'ni bu o'rda matn zahirida, bir uchigina suv yuzasida ko'rinish beradi”.⁹ Shu jihati bilan hikoya yozuvchi yaratgan “aysberg nazariyasi”ning barcha talablariga javob beradi.

Olim Otaxon hikoyalarida tasvir o'zgachaligiga sabab uning dunyo adabiyoti bilan uzluksiz aloqada bo'lgani, tinmay o'qib-o'rganaganidir. Qolaversa, yozuvchi ijodida Ernest Xeminguey, Xulio Kortasar, Karlos Fuentes, Kavabata kabilarning ta'siri ham kata ahamiyatga ega, chunki biz Olim Otaxon hikoyalaridagi aytmay-aytishni, tasvirdagi sirlikni Ernest Xemingueyda, sodda syujetdan birorta hayotiy saboq chiqarishni Kortasarda, hissiy tasvirni maromiga yetkazib berish,

⁸ Otaxon Olim. Tanlangan asarlar. – T.: “Sharq”, 2021. – B. 567
⁹ O'sha manba





inson qalbining uzoq puchmoqlarigacha borishni Kavabatada ko'ramiz. Olim Otaxon esa mana shu sifatlarni qaysidir darajada o'zlashtirishga, asarlariga tatbiq qilishga harakat qilgan va maqsadiga yetgan ijodkordir.

Yozuvchi ijodi bilan tanishib, syujetsiz ham hikoya yaratsa bo'lar ekan degan fikrga boramiz. Ijodkorni ozgina yozgan, lekin sozgina yozgan deya olamiz. Uning adabiyotshunoslar tomonidan ko'p tahlil qilinadigan "To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza" hikoyasi bo'lib, umuman yangicha usulda yozilgan bu hikoyaga fransuz shoiri Artur Remboning she'ridan olingan " U sarson izlardi o'zini o'zi" so'zlari epigraf sifatida olingan. Ushbu epigraf hikoyaning nima haqida ekanligiga ozroq bo'lsa-da ishora qiladi: qahramon to'satdan o'zini taftish qila boshlaydi. To'satdan ko'zi tushib qolgani –to'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza butun diqqat e'tiborini, ong-u shuurini go'yo egallab oladi. Hikoyada boshdan oxirgacha "sen" deb murojaat qilinadi:

" Sen o'zingni xuddi uzoq yo'lning mashaqqatli dovonlaridan o'tib olgandek his etasan. Go'yo sarg'ish deraza bilan oralaringda bir-birini anglash va o'zaro hamdardlik boshlangan edi.

Sen zinadan tushgach, ko'zlaringni kafting bilan panalab derazani izlaysan. Son-sanoqsiz qor uchqunlari oralab, sarg'ish deraza seni chaqirmoqda edi. Nazaringda u horg'in emas, sokin edi. Sen ensiz o'lkaning adog'iga borib, qo'l silkiysan va bir iztirob vujudingni sekin qamrab ola boshlaydi-yu, unsiz, yelkalarining silkinib-silkinib, xuddi uzoq ayriliqdan so'ng farzandini ko'rgan onadek ko'ngling buziladi..." ¹⁰. Bu yerda muallif obrazi bilan muallif birmi degan savol tug'uladi. Aslida, muallif har doim ham o'zini to'la namoyon qilmaydi, lekin muallif obrazini mantiqan bor deb bilsak, u asarda ishtirok etadi. Ushbu hikoyada ichki nuqtayi nazar bor, qahramon bizda yozuvchining o'zidek taassurot qoldiradi. Yozuvchi asarda o'quvchisiga o'zini tushunishi uchun kalit berib ketgandek go'yo. Mana bu parchada ijodkor asarlarini tahlil qilishda qanday yondashish kerakligiga ishora bor:

"Shu yerga ko'chib kelgan paytlaringda endigina "Rog'!" degan doston yozib tugatganding. O'shanda dostonning g'ayritabiiy sarlavhasiga xuddi kelishib olgandek, hamma baravariga ochiqdan ochiq qarshi chiqqan edi. Do'stlaring ham, shoir-u noshirlar ham bu so'zni tushunmagan, uning zamirida qanday ma'no yotganini bilmagan bo'lsalar-da, astoydil, samimiyat bilan tanqid qilgandilar. Sen o'shanda pinagingni buzmaganding, chunki ular nazaringda sen ustalik bilan qo'ygan tuzoqqa ilingan, ya'ni nihoyatda kaltabin ekanliklarini fosh qilgan edilar. Ayrimlar doston qolib ko'proq arxaik so'zlar, mistika va rog' haqida og'izlariga





kelganini valdiragandilar: ba'zilar sarlavha orqali dostonning yutug'i xiralashib turibdi, degandi. Kim minbarga chiqib gapirsa, gapini nimadan boshlamasin va umuman, nimalar haqida to'xtalmasin, baribir oxir-oqibat muqarrar sarlavhadagi shu so'zga kelib to'xtar yoki barcha fikrlari beixtiyor shunga bog'liq bo'lib qolaverardi. Hech kim buning ma'nosi nima deb, so'ramagandi. Holbuki, sen o'zing ham bilmasding. Shuning uchun muhokama nihoyasida so'zga chiqib hammalarini mulzam qilgan va sizlarning fikringiz ham, she'riyatga munosabatlaringiz ham rog' deya kulgan eding... U suvlar oqib ketdi. Biroq o'sha dostonning ruhi, kayfiyati, keyin nima yozgan bo'lsang, o'shanda aks etaverdi va hatto hayoting tarziga ham ta'sir qildi. O'sha doston o'zligini sarson bo'lib topolmayotgan inson haqidagi o'ylaringdan tashkil topgan edi"¹¹.

Ko'rinadiki, yozuvchi asarlarini tahlil qilishda shunchaki asar tili yoki shaklga e'tibor berish, g'oyaning ochiqdanmay qolishiga sabab bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, muallif obrazi sen shaklida bo'y ko'rsatadi, voqea ong oqimida kechadi. "Eng muhimi, hikoya, adabiy-tarixiy jarayonga doir uch zamon xususiyatini mujassam eta oladigan o'ziga xos badiiy janr hisoblanadi Jahon hikoyachiligi kontekstida bunday qarash o'zini to'la oqlab kelgan. Ayni paytda, o'zbek hikoyalari ham shunday fazilatlardan yiroq emas"¹²- deydi olim. Haqiqatan, unda o'tmish, bugun va kelajak mujassam bo'lishi mumkin.

Biroq odatda muallifning irodasi va ongidan tashqari holda ham fikr qahramonning yaxlitligiga moslashtirish uchun qayta ishlanadi. Bu qayta ishlash qahramon dunyoqarashining nazariy birligi uchun emas, balki uning shaxsiy yaxlitligi uchun amalga oshadi.

Umuman, bir yozuvchi ijodini tahlil qilganda, faqat qoliplar asosida ish ko'rish, qaysidir turlarga ajratish, kishini estetik zavqdan, hatto asl maqsaddan uzoqlashtirishi ham mumkin, lekin ba'zan to'plam va tasnifdan foydalanib ish ko'rish ham fikrlar chalkashligidan, aralash-quralash mulohazalarga borishdan asraydi, ba'zan. Aslida, har bir ijodkor individual, o'ziga xos uslub egasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Genette, G. (1980). Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca: Cornell University Press.
2. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик (М.М. Дўст, Ф. Хотамов ва О. Отахон асарлари мисолиди). Фил. фан. ном.дисс. автореферати. – Т.: 1994. – Б. 46.
3. Жўрақулов У. Хос калом хосияти. "Шарқ юлдузи" журнали, 2013 йил, 3-сон.

¹¹ Отахон Олим. Танланган асарлар. – Т.: "Шарқ", 2021. – Б. 166.

¹² Жўрақулов У. Хос калом хосияти. "Шарқ юлдузи" журнали, 2013 йил, 3-сон





4. Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.
5. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. Ғафур Ғулом нашриёти, 2018. - 504 б
6. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. – Тошкент, 2002. – 17 б
- Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва сан'ат нашриёти, 2016. – Б. 364
7. Махмудова З. Ижод психологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003. № 3. Б. 45–47.
8. М.М.Бахтин. Эстетика словесного искусства. Москва. Искусство, 1986.
9. Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва сан'ат нашриёти, 2016. – Б. 436.
10. Норматов, У. (2007). Ижод сеҳри. Шарқ.
11. Отахон Олим. Танланган асарлар. – Т.: “ Шарқ ”, 2021. – 584 б.
12. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 230.
13. Rimmon-Kenan, S. (1983). Narrative Fiction: Contemporary Poetics. London: Methuen.
14. А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. – Б. 308.
15. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Халқ мероси, 2004.
16. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 408.
17. Ўзбек замонавий насри антологияси / Тузувчи: М.Тошпўлатов. Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти”, 2022. - 512-б.
18. Ў.Носиров. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. – Т.: “Фан”, 1981. - 28 б.

